

## MAMLAKATIMIZNING IJTIMOY- IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSİYALARNI JALB ETISH IMKONIYATLARI

**Obidov Rasuljon Abdulxayevich**

TKTI Yangiyer filiali o`qituvchisi,

Ahmatova Charos Azamat Qizi


TKTI Yangiyer filiali 1- bosqich talabasi

e-mail: [rasul.obidov@mail.ru](mailto:rasul.obidov@mail.ru)

O'zbekiston va jahon iqtisodiyotining kelgusi taraqqiyoti, asosan, investitsiyalarga bog'liqligini bugungi kunda deyarli har bir xo'jalik yurituvchi sub'ekt anglab etganligini nazarda tutsak, hozirgi kunda respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalariga investitsiyalarni, xususan, xorijiy investitsiyalarni kengroq jalb etish ularning mamlakatimizda o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning samarali ijrosini ta'minlashning muhim asosga aylanganligi bilan bog'liqligini tushunib olish qiyin emas. Mamlakatni ijtimoiy - iqtisodiy va siyosiy rivojlanishida investitsiyalarining jumladan, xorijiy investitsiyalarning ahamiyati kattadir. 2019 yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 95,1 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, bu umumiy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 28,7 % ni tashkil etdi [1].

Xorijiy investitsiyalarni respublikamizning barcha tarmoqlariga jalb qilish bilan bog'liq masalalarga e'tibor qaratish dolzarb masala bo'lib, bu yo'nalishda keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. O'tgan yil yakunlariga ko'ra, xududlar bo'yicha xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining eng yuqori ishlab chiqarish hajmlari Toshkent shahrida (27 232,1 mlrd.so'm) va Toshkent (12 270,8 mlrd.so'm) viloyatida kuzatilgan bo'lsa, eng quyi ko'satkichlar Surxondaryo (782,0 mlrd.so'm) va Buxoro (834,9 mlrd.so'm) viloyatlarida qayd etildi (1-rasmga qarang).





1- rasm. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari, (2019 yil, mlrd.so'm) [1]

Xorijiy investitsiyalarni jalb etish jarayonidagi murakkab bosqich sarmoya jalb etish va uni sarmoyadorga qaytarish, ya'ni hamkorlikning o'zaro oldi-berdi bosqichi hisoblanadi. Olingan mablag'ni samarali o'zlashtirish va foyda olish ular uchun muammo hisoblanmaydi. Ularning o'z sarmoyalari ko'yilgan korxonani bevosita boshqarishda qatnashishga yoki bunday korxonalarni nazorat qilishga intilishlari shu bilan izohlanadi.

Ayni kunlarda birmuncha muammolardan biri - yangi mahsulotlar ishlab chiqara olish va hozirda tayyorlanayotgan tovarlar sifatini ko'tarish, ularni bozorga chiqara olish va sotishdir. Bundan kelib chiqadiki, sarmoya ko'yishning asosiy yo'nalishi ilmiy tadqiqotlar va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari, ishlab chiqarishni texnik qayta jihozlash, kadrlarni qayta tayyorlash hamda maxsulot sotish tizimini rivojlantirishga qaratilishi lozim.

Bozor iqtisodiyoti investitsion loyiha risklarini baholashda kompleks yondashuvlar va loyihaviy moliyalashtirishda qo'llaniladigan barcha investitsiyalarning samaradorlik ko'rsatkichlari tizimini o'rganishni talab etadi. Investitsiya loyihalarini baholashda, tanlab olish va amalga oshirishda ichki va tashqi investitsiya imkoniyatlarini tahlil qilishda:

Birinchi, albatta har bir jalb etiladigan moliyalashtirish manbai qiymatini pulning vaqtli qiymati nazariyasi asosida baholashni o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchi, loyiha bo'yicha noma'lumliklarni tahlil qilish, risklarni kamaytirish usullarini belgilash va ularni oldindan investitsiyalash ishtirokchilari o'rtasida taqsimlash tavsiya etiladi.

Uchinchidan, investitsiya loyihalarining samaradorligini baholashda sof diskontlangan me'yor, qoplanish muddati kabi standart uslub ko'rsatkichlaridan foydalanshi zarur.

To'rtinchidan, o'z mablag'lari va xorijiy sheriklar, xalqaro moliya institutlari resurslari hisobidan moliyalashtiriladigan investitsion loyihalar bo'yicha qarorlar qabul qilishda ularni jalb etish narxlarini aniqlash asosida resurs bazasini baholashni o'tkazish zarur.

Shunday qilib, iktisodiyotga horijiy sarmoyalarni jalb etish jarayonini oddiy sxema ko'rinishida quyidagicha bayon etish mumkin: strategik maksad, iqtisodiy hisob, tavakkalchilik darajasini baholash, uni eng kam darajaga tushirish yo'llarini topish. Agar faoliyatning bunday uzviyligi aniq va to'liq bajarilsa, u holda horijiy investitsiyalar jalb etilishiga umid qilish mumkin.

Olib borgan izlanishlarimiz natijasida xududlarda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda quyidagi muammolar mavjudligi aniqlandi hamda takliflar ishlab chiqildi:

-investitsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirish, banklar, investitsiya fondlari, sug'urta va lizing kompaniyalari faoliyatini rag'batlantirish va investitsiya loyihalarini amalga oshirishda ularning ishtirokini samarali yo'lga qo'yish;

-tadbirkorlarning biznes-ko'nikmalarini, shu jumladan, investitsiya loyixalari bilan ishlash tajribasi va xuquqiy bilimlarini yuksaltirish hamda xududlarda konsalting, marketing va yuridik xizmat ko'rsatuvchi markazlar faoliyatini yanada rivojlantirish;

-tadbirkorlarga investitsiya loyixalarini ishlab chiqarishda tijorat banklari, xududlardagi savdo-sanoat palatasi va boshqa mas'ul idoralar tomonidan amaliy yordam ko'rsatilishini tashkil etish va doimiy nazoratga olish;

-loyixa tashabbuskorlari moliyaviy-iqtisodiy holatining nochorligi-investitsiya dasturlari va xududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha dasturlarga kiritish taklif etilayotgan loyihalar tashabbuskorlari-ning moliyaviy-iqtisodiy xolatining maxalliy hokimliklar va tijorat banklari tomonidan chuqur tahlil qilinishini talab etmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) - O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy sayti
2. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.



3. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi.
4. [www.tradingeconomics.com](http://www.tradingeconomics.com) – Экономические показатели

